

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ALISHER NAVOIY SHE‘RIYATI OBRAZ-TIMSOLLAR KO‘LAMI TADQIQIGA DOIR

Usmon Qobilov

filologiya fanlari doktori, SamDU professori,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

E-mail: usmonqobilov82@mayil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy she‘riyatining obraz-timsollar olami haqida fikr yuritiladi. Unda Sharq mumtoz she‘riyati, jumladan, Navoiy lirikasi obrazlari ilohiy, adabiy va tarixiy turlarga bo‘lib tahlil etiladi. Bu obrazlar shakllanishi va samarali talqin etilishiga manba sifatida xizmat etgan og‘zaki adabiyot, ilohiy manbalar va tarixiy asarlar qayd etiladi. Shu bilan Alisher Navoiy she‘riyati, umuman, mumtoz adabiyot abadiyligini ta‘minlagan talqinlar mohiyati ochib beriladi.

Kalit so‘z va iboralar: Mumtoz adabiyot, an‘anaviylik, Alisher Navoiy lirikasi, obraz va timsol, ilohiy timsol, adabiy obraz, tarixiy siymo, badiiy talqin.

Аннотация: В данной статье рассматривается мир образов и символов поэзии Алишера Навои. В ней образы восточной классической поэзии, в том числе лирики Навои, анализируются на теологический, литературный и исторический типы. Отмечается устная литература, богословские источники и исторические труды, послужившие источником для формирования и эффективной интерпретации этих образов. Таким образом, раскрывается суть интерпретаций, обеспечивающих вечность поэзии Алишера Навои и классической литературы в целом.

Ключевые слова: Классическая литература, традиционализм, лирика Алишера Навои, образ и символ, божественный символ, литературный образ, историческая личность, художественная интерпретация.

Abstract: This article examines the world of images and symbols of Alisher Navoi's poetry. In it, the images of Eastern classical poetry, including Navoi's lyrics, are analyzed into theological, literary and historical types. The oral literature, theological sources and historical works that served as a source for the formation and effective interpretation of these images are noted. Thus, the essence of interpretations is revealed, ensuring the eternity of the poetry of Alisher Navoi and classical literature in general.

Key words: Classical literature, traditionalism, Alisher Navoi's lyrics, image and symbol, divine symbol, literary image, historical figure, artistic interpretation.

Alisher Navoiy Sharq va jahon Uyg‘onish davri madaniyatining ulkan namoyondasidir. U har biri ulkan hodisa bo‘lgan rang-barang asarlari bilan badiiy ijodda takrorlanmas siymo sifatida shuhrat qozondi, turkiy-o‘zbek so‘z san‘ati taraqqiyotini jahoniy maqomlarga olib chiqdi. Alisher Navoiy badiiy ijodining asosini, albatta, alohida bir davr va jarayonni qamrab olgan mumtoz she‘riyat bisoti tashkil qiladi. Bu ulkan xazina epik va lirik talqinlarda yuzaga kelgan bo‘lib, ularning barchasida ulug‘ bir qalbning o‘tmish, zamon va kelajak haqidagi kechinma-qarashlari yuksak mahorat bilan tasvirlanadi. Hazrat Alisher Navoiy she‘riyati mavzu-mundariyasi bilan ham, obraz-timsollar ko‘lami jihatidan ham butun bir xalqlar badiiy

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ijodiga tenglashadigan darajadadir. Ma’lumki, Sharq-islom mumtoz she’riyatida ilohiy siymolar, tarixiy-afsonaviy shaxslar, epik qahramonlar badiiy obrazlariga ko‘p bora murojaat etiladi. Bunda ilohiy-ma’rifiy, ijtimoiy-axloqiy va badiiy-ishqiy masalalar talqini yuzaga chiqariladi. Bu an’ana Sharq she’riyatining mumtozlik darajasini ta’min etgan badiiy-ijodiy qonuniyat ham sanaladi. Shuning uchun ham Sharq mumtoz she’riyati badiiy-estetik, adabiy-falsafiy, poetik jihatlardan nihoyatda jozibador va betakror hodisadir. Sharq, xususan, o‘zbek mumtoz she’riyatidagi rang-barang obraz-timsollar ifodasi badiiy-estetik tafakkurni uzoq tarixiy va ilohiy-bashariy qarashlar, tuyg‘ular zanjiri bilan bog‘laydi. Chunonchi, mumtoz she’riyat poetik olamida muqaddas manbalarda tarixi va nomlari zikr etilgan siymolar obrazlari talqini katta o‘rin egallaydi. Bu xil obraz-timsollar xilma-xil poetik funktsiyalar bajarish bilan birga mumtoz adabiyotning mazmun-mohiyati va ifoda olamiga muqaddas tuyg‘ular ifodasini ham olib kiradi. Shu nuqtai nazardan Alisher Navoiy adabiy merosi, ayniqsa, lirik devonlari Sharq mumtoz she’riyati poetikasi uchun teran bir dalolatdir. Unda ilohiy siymolar, tarixiy shaxslar va adabiy qahramonlarga murojaat etish alohida o‘rin tutadi. Shulardan biri va birinchisi mumtoz adabiyot, xususan, shoir she’riyatida ilohiy siymolar badiiy obrazi talqini an’anasini nihoyat sermahsuldir. Alisher Navoiy she’riyati darajasida bunday siymolar obrazlari talqiniga murojaat etgan ijodkor deyarli uchramaydi. Alisher Navoiy sakkiz lirik devon tartib bergan bo‘lsa, bu lirik devonlarning har birida ayni timsollar talqini rang-barang poetik manzaralarni hosil qiladi. Ma’lumki, o‘rta asarlar dunyo adabiyoti g‘oyaviy-badiiy taraqqiyotida muqaddas manbalar katta rol o‘ynadi. Buni Sharq adabiyoti ham, G‘arb adabiyoti namunalari ham tasdiqlaydi. Ayniqsa, ushbu manbalar asosini tashkil etgan payg‘ambar siymolar tarixi va tavsifi mumtoz adabiy merosimizdan chuqur o‘rin egallagan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Qur’oni Karim to‘rtidan bir qismini payg‘ambarlar qissalari tashkil etadi. Shu asosda Sharq, xususan, turkiy-o‘zbek adabiyotida alohida bir ulkan adabiy hodisa payg‘ambarlar qissalari (“Qissas ul-anbiyo”) turkumi shakllandi va bu turkum mumtoz adabiyotda badiiy-nasriy asarlar an’anasini vujudga keltirdi. Bu holat Sharq mumtoz adabiyoti lirikadan tashkil topgan degan qarashlar bahsli ekanligini ham ko‘rsatadi va jahon adabiyoti singari mumtoz Sharq adabiyotida ham she’riyat taraqqiyotida nasr poydevor bo‘lib xizmat etganligidan dalolat beradi. Shu o‘rinda aytish kerak, “mumtoz adabiyot” termini adabiyotshunoslikda doimiy ravishda qo‘llanilib kelinadi. Sharq adabiyotshunos olimlari “mumtoz adabiyot” terminini islom ta’siridagi adabiyot sifatida talqin etadilar. Bunda, asosan, mumtoz poetika, aruz nazariyasi, qofiya va badiiy san’atlar ilmi, an’ana va boshqalar nazarda tutiladi. Biroq mumtoz adabiyot badiiy olami bilan bog‘liq talqinlar har doim ham

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

e'tiborga olinmaydi. Mumtoz adabiyot, jumladan, she'riyat olamida payg'ambar siymolar, tarixiy-afsonaviy shaxslar, adabiy qahramonlar alohida talqin etiladi. Bunda payg'ambarlar qissalari, forsiy va turkiy shohlar tarixi, xalq og'zaki ijodi manba hisoblanadi. Bu holat mumtoz adabiyot badiiy qonuniyati ham sanaladi. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, o'zbek adabiyotida “Qudatg'u bilig” dostonidan “O'tgan kunlar” romanigacha bo'lgan ming yillik adabiyot mumtoz adabiyot davri hisoblanadi. Bu jihatdan Alisher Navoiy ijodi va she'riyati nafaqat o'zbek, balki Sharq mumtoz adabiyotining cho'qqisi sanaladi. Shoir she'riyatida ilohiy siymolar, adabiy qahramonlar va tarixiy shaxslar obrazlariga murojaat etish an'anasi mahsuldor jarayondir. Bunda tavba-tazarru, uzoq umr, tiriklik va qut-baraka, ohang va ovoz, ma'naviy boylik, go'zal sabr, go'zallik, jonbaxshlik, ma'rifat kabilar ramziy ifodalari aynan ilohiy siymolar talqinida ramziy ravishda ochib beriladi. Alisher Navoiy she'riyatida bunday siymolar obrazlari rang-barang poetik manzaralar yaratishga xizmat qiladi, she'r badiiyati, mazmuni uchun teran falsafiy-estetik fikrlarni yuzaga chiqaradi, mumtoz she'riyat umuminsoniy qadriyatlar ifodasi va gumanistik qarashlar ijrochisi ekanligidan dalolat beradi.

Shuni aytish lozimki, Sharq, chunonchi, Alisher Navoiy she'riyatida payg'ambarlar obraz-timsollari tavsifida ilohiy, afsonaviy shaxs va shohlar (Jamshid, Kayxusrav, Iskandar, Xusrav) obrazlari tasvirida tarixiy-badiiy, adabiy qahramonlar (Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Vomiq, Uzro) talqinida og'zaki-yozma asarlar manba bo'lib xizmat qiladi. Alisher Navoiy she'riyati obrazlar silsilasida asosiy o'rin tutadigan bu timsollar talqinida ko'proq ilohiy va adabiy tipdagi siymolar tasviriga e'tibor qaratiladi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, shoir lirik merosi mazmun-mohiyati bilan ijtimoiy masalalardan ko'ra, irfoniy-ishqiy mavzular talqiniga moyildir. Misol uchun shoir lirikasida Masih, Xizr, Huh yoki Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Vomiq va Uzro obrazlari Xusrav, Iskandar, Jamshid kabi badiiy siymolar tasviriga qaraganda faoldir. Boshqacha aytganda, mumtoz she'riyat timsollar olami an'anaviy mezonlar asosida olib kuzatilganda bir turkum obrazlar talqini mavzu mohiyatiga ko'ra ilohiy-irfoniy, tarixiy-tavsifiy, adabiy-ishqiy motivlar bilan namoyon bo'lsa, timsollar talqini xarakteridan kelib chiqishi kuzatiladi. Ya'ni syujet va motiv, obraz va xarakter qaysi tipga yo'naltirilgan bo'lsa, lirik talqinda shu xususiyat namoyon bo'ladi. Masalan, ilohiy-ma'rifiy masalalar talqinida Odam va Havo, Ibrohim va Sora, Sulaymon va Bilqis kabilar badiiy timsollari, ijtimoiy-falsafiy mavzular tasvirida Jamshid, Kayxusrav, Bahrom, Iskandar singari shohlar obrazi, ishq-muhabbat mavzusi tarannum etilgan satrlarda Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Vomiq va Uzro, Yusuf va Zulayho singari timsollarga murojaat etiladi. Bundan shu

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

narsa ko‘rinadiki, mumtoz lirik qahramon kechinmalari ijtimoiylikdan ko‘ra ma‘rifiy-ishqiy masalalar fonida kechadi. Alisher Navoiyning o‘zi ham bir o‘rinda Vomiq, Farhod, Majnun dostonlari – ishq darsi, sabog‘i ekanligini aytadi. Shu bois shoir lirikasida adabiy obrazlar turkumi talqini ikkinchi bir qatlam sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda shoir “Layli firoqida Majnun”, “Shirin g‘ami bilan Farhod, “Yusuf firoqida Zulayho”, “Uzro g‘amidagi Vomiq”ni lirik qahramon – oshiq uchun tamsil qilib oladi. Shu o‘rinda aytish kerakki, Alisher Navoiy lirikasida Shirin, Layli, Uzroga nisbatan Farhod, Majnun, Vomiq obrazlari keng ko‘lamli tasvirlanadi. Bu, fikrimizcha, shoir she‘riyatida lirik qahramon – oshiq timsoli bo‘lib kelishining bir dalolati sanaladi. Alisher Navoiy, umuman, mumtoz she‘riyat obraz-timsollar talqini uchun ilhombaxsh manbalar turkumi mavjud. Bunda muqaddas ilohiy kitoblar, “Qisas ul-anbiyo”lar yoki payg‘ambarlar tarixi turkum asarlari ilohiy siymolar badiiy timsollari tasviri uchun, “Shohnoma”lar, “Ajam shohlari tarixi” va boshqa tarixiy-badiiy asarlar hukumdorlar obrazlari uchun, xalq qissalari va dostonlari, og‘zaki va yozma ijod namunalari, xamsachilik an‘anasi adabiy timsollar talqini uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuni alohida qayd etish joizki, Alisher Navoiy lirikasidagi bu tip obraz-timsollar lirik talqinida ushbu syujet bilan bog‘liq motivlar majoziy-ramziy tasviri yuqori planga chiqariladi. Masalan, Farhod obrazini oladigan bo‘lsak, dostonda mavjud bo‘lgan ayrim epizodik tasvirlar, holatlar lirik talqinga ramziylik asosida ko‘chadi. Chunonchi, “tog‘”, “tesha”, “suv”, “ariq” kabi motivlar doston syujetidan badiiy detal tarzida olinadi va o‘zga poetik tavsiflarda, badiiy ufqlarda talqin etiladi. Majnun timsolida “ohu”, “dasht”, “yovvoyi hayvonlar” xuddi shunday lavha sifatida tasvir qilinadi, Kayxusrav yoki Sulaymon obrazlari tasvirlangan satrlarda “toj” va “mulk” badiiy fikrni yuzaga chiqaradi. Alisher Navoiy lirik devonlarining barchasida Farhod timsoli eng ko‘p murojaat etiladi. Bu timsolning shoir she‘riyatida qo‘llanilishi, deyarli, Majnun obrazi bilan tenglashib qoladi. Gap shundaki, Navoiy bunday timsollarni o‘z she‘riyatida qancha miqdorda talqin etsa, unda g‘oyaviy-badiiy ifoda ham shuncha miqdorda rang-barang adabiy-estetik tuyg‘u-hissiyotlar, turfa poetik manzaralar, ruhiy kechinmalar hosil qiladi.

Ma‘lumki, ishq-muhabbat mavzusi san‘at va badiiy adabiyotning so‘nmas, umuminsoniy mavzularidan hisoblanadi. Bu mavzuda yaratilgan asarlar har qancha vaqt o‘tsa hamki, kishilar ongu tafakkuri, qalb-shuurida yashayveradi, xotiradan o‘chmaydi. Sharqda mashhur bo‘lgan “Yusuf va Zulayho”, “Vomiq va Uzro”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi asarlar o‘z mohiyat e‘tiboriga ko‘ra she‘riy asarlarga har tomondan chuqur ta‘sir etgan. Misol uchun “Layli va Majnun” dostoni qahramonlari Layli va Majnun Sharq mumtoz shoirlariga alohida ilhom

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

bag‘ishlagandir. Alisher Navoiy ijodida “Layli va Majnun” mavzusi alohida adabiy-estetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. U “Layli va Majnun” dostonida Majnun timsolining komil obrazini yaratdi, lirikasida ramziy-majoziy va timsoliy xususiyatlarini ochib beradi. Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya” devonlarida olib 140 dan ortiq, “Xazoyin ul-maoniy” devonida esa 300 ga yaqin miqdorda tasvir etadi. Alisher Navoiy she‘riyatida ilohiy, adabiy va tarixiy obrazlar talqinining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri ularning o‘zaro muvoziy-paralel tasvir etilishi masalasi hisoblanadi. Bunda ham shoir o‘ziga xos qonuniyatlarga amal qilganligi ko‘rinadi. Sharq mumtoz she‘riyatining bu qonuniyati Alisher Navoiy lirikasi misolida ko‘rib chiqilganda, ushbu tip obraz-timsollar, deyarli boshqa obraz yoki timsollar bilan emas, balki o‘z guruhida muvoziy talqin etilishi hodisasi ko‘zga tashlanadi. Bunda adabiy timsollar aynan shu tip obrazlar bilan, tarixiy siymolar esa o‘z guruhi bilan birgalikda muvoziy tasvir etiladi. Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-ma’oniy” kulliyotida Farhod, Vomiq, Majnun yoki Shirin, Layli, Uzro timsollari parallel ifodalanishi kuzatiladi. Misol uchun Farhod va Majnun “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida 16, “Navodir ush-shabbob”da 26, “Badoye’ ul-vasat”da 30, “Favoyid ul-kibar” devonida 27 marta muvoziy talqin etiladi. Bundan tashqari ilohiy, adabiy va tarixiy siymolar obraz-timsollari poetic olami bilan bog‘liq rang-barang talqinlar mumtoz she‘riyat jozibadorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytish lozimki, Sharq mumtoz she‘riyati, xususan, Alisher Navoiy lirik merosi jahon adabiyoti tarixida kuzatilmaydigan va alohida hodisa bo‘lgan an’anani vujudga keltirgan. Bu masalani g‘oyaviy-badiiy, falsafiy-estetik jihatlardan chuqur tahlil va tadqiq etish hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 1-том. Бадойиъ ул-бидоя. – Тошкент: Фан, 1987. – 724 б.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 2-том. Наводир ун-ниҳоя. – Тошкент: Фан, 1987. – 624 б.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 3-том. Фаройиб ус-сигар – Тошкент: Фан, 1988. – 616 б.
4. Алишер Навоий: қомусий луғат. (Маъсул муҳаррир: Ш. Сирожиддинов) – Тошкент: “Шарқ”, 2016. – 536 б.
5. Алишер Навоий: қомусий луғат. (Маъсул муҳаррир: Ш. Сирожиддинов) – Тошкент: “Шарқ”, 2016. – 480 б.
6. Эркинов С. Шарқ адабиётида Фарҳод қиссаси. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1985. – 64 б.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

7. Эшонкулов Ҳ. Самовот – ишқ мазҳари. – Тошкент: “Фан”, 2008. –128 б.
8. Юсупова Д. Алишер Навоий «Хамса»сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2011. – 144 б.
9. Qobilov U.U. Profetologiya va o‘zbek adabiyoti. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2023 yil, 250 bet
10. Qobilov U.U. Ilohiyot va badiiyat. I-kitob (Monografiya). – Toshkent: “Nihol” nashriyoti, 2008 yil, 150 bet